

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT  
VOSITASIDA TA’LIM MUHITINI RIVOJLANISHI**

**Muhammadamin Fozilov Qudratjon o’g’li  
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o’rni va bu boradagi jaxon tajribasi qolaversa AI vositasida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish borasida amaliy tajribalar o’rin olgan. Ta’lim jarayoniga ushbu texnologiyalarni jalb etish uchun bir qancha maslahatlar ham mavjud.

**Kalit so’zlar:** Raqamli texnologiyalar, robototexnika, AI ta’lim, AI savodxonlik, ta’lim, raqamli ta’lim.

Ta’lim islohoti bugungi kunda har qanday mamlakat rivojining eng muhim va shu bilan birgalikda eng dolzarb masalalaridan birdir. Bu masala har qanday davrni eng muhim masalasi sifatida qaralgan. Ayniqsa XXI asrda bu masala yana ham yuqori darajaga yetdi. Raqamli texnologiyalar bizga bu masalani hal etishda juda ham bir saviyali o’rinli yechimlarni tuhfa eta oladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo’llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta’lim jarayonini ham tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo’rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o’rtasidagi raqobat masalasi ham ko’tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so’zsis foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o’rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog’liq masalalar tobora ko’proq e’tiborga olinmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko’p mablag’ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo’lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo’ladi”

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni jalb etish avvalo oliy ta’lim muassasalarida va qolaversa barcha turdagi ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonining eng muhim tomonlaridan biri bo’lgan axborot resurs markazi tizimiga raqamli kutubxona faoliyatini keng yo’lga qo’yish va elektron darsliklarni ommaga va ta’limga keng ravishda foydalanishga topshirish kerak. Biz bu orqali kitob chop etishga ketadigan sarf xarajatlarni ham bir qanchaga kamaytirgan bo’lamiz. [2]Qolaversa tadqiqotlarga ko’ra OTMda raqamli ta’lim muhitini yaratish muammosini tadqiq qilish chog’ida tanlangan masalani nazariy jihatdan o’rganilish holatini tahlil qilish bilan birga uning pedagogik amaliyotda qanday vaziyatda ekanini aniqlashga ham e’tibor qaratildi. Bu boradagi harakatlar quyidagi natijalarni berdi: respondentlar “raqamli ta’lim” tushunchasini “onlayn ta’lim” (86 foiz), “kompyuter yordamida tashkil qilingan o’qitish” (14 foiz) ekanini aytib o’tgan bo’lsalar-da, “raqamli ta’lim muhiti” atamasini “kompyuterlar bilan jihozlangan auditoriya” (85 foiz), “kompyuter va Internet asosidagi ta’lim” (15 foiz) deya talqin etgan. Talabalarning aksariyati raqamli ta’lim komponentlari sifatida kompyuter, Wi-Fi yoki modemni (73 foiz), shaxsiy

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

kompyuter, planshet, Internet hamda Wi-Fini (19 foiz) tushunishlarini qayd etgan bo’lsalar, 8 foizi javob bermagan. Respondentlar uchinchi savolni avvalgi savolning mantiqiy davomi sifatida qabul qilgan hamda ko’rsatilgan foizlar asosida OTMda raqamli ta’lim muhiti yaratilgan, deb o’z fikrlarini bildirib o’tishgan.

Bundan tashqari sun’iy intellekt ham bugungi kunda jadallashib rivojlanmoqda va buni bir qancha davlatlar buni qabul qilib o’zining bir qancha soxalariga xususan ta’lim jarayoniga ham jalb etishgan. Misol tariqasida Yaponiyada bir qancha maktablarda robotlar o’qituvchilar o’rnini egallab dars mashg’ulotlarini o’tib kelmoqda o’quvchilar esa o’zlari istagan ta’lim mavzusi bo’yicha qiziqtirgan savollariga javob olishmoqda. Shu o’rinda Stanford universiteti professori Endryu Ng sun’iy intellektni bu asrning yangi elektr energiyasi deb ta’kidlaganini [3] aytib o’tish lozim. Xavfsizlik va rivojlanayotgan texnologiyalar markazi (Center for Security and Emerging Technology) tomonidan nashr etilgan Xitoy va Qo’shma Shtatlarda SI ta’limi qiyosiy baholash bo’yicha hisobotida quyidagilar e’tirof etiladi “Xitoy AI ta’limini yosh talabalar ta’limiga faol integratsiya qilmoqda. Bu sa’y-harakatlar, birinchi navbatda, boshlang’ich maktab darajasida Python kurslari va robototexnika, uchuvchisiz dronlar va 3D printer va boshqalarni o’z ichiga olgan laboratoriyalarga kirish bilan tavsiflanadi”.

Ushbu katalog talabalar, ota-onalar, o’qituvchilar va siyosatchilar kirishi mumkin bo’lgan 650 ga yaqin AQShning AI va sun’iy intellektga oid dasturlari ro’yxatini o’z ichiga oladi. Biz nafaqat o’quvchilar va o’qituvchilar uchun sun’iy intellekt bo’yicha ta’limni yanada qulayroq qilish, balki federal, shtat va mahalliy darajadagi ta’lim ma’murlari va siyosatchilarga AI ta’limidan umumiy foydalanish imkoniyatini oshirishga yordam beradigan vositani ishlab chiqish imkoniyatini ko’rdik. Har qanday foydalanuvchi uchun ma’lumotni qidirish mumkin bo’lishi uchun biz alohida dastur toifalarini yaratdik: maktabdan keyingi dasturlar, shogirdlik, muammolar, konferentsiyalar, o’quv dasturlari, stipendiyalar, xakatonlar, amaliyotlar, robototexnika, stipendiyalar va yozgi lagerlar. Foydalanuvchilar qidiruvni joylashuvi, dastur turi, xosting tashkiloti va maqsadli auditoriya bo’yicha qisqartirishi mumkin (qidiruv foydalanuvchi tanlagan dastlabki mezonlarga ko’ra mavjudlikdan kelib chiqqan holda avtomatik ravishda boshqa parametrlarni filtrlaydi). Ba’zi ro’yxatga olingan dasturlarda bir nechta takliflar bo’lishi mumkin; Bu sodir bo’lganda, biz dasturni belgilash uchun eng mashhur taklifni tanladik. Biz, shuningdek, STEM sohalarida kam ifodalangan yoki jamiyatga yo’naltirilgan bepul, maqsadli populyatsiyalar bo’lgan dasturlarni aniqlaymiz. Bundan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki mamlakatimizda bu tizimga erkinlik berish uchun eng avvalo axborot savodxonligi va xavfsizligini va AI savodxonlikni ta’lim jarayonining barcha turlari va bo’g’inlariga jalb etish orqali dastlabki eng muhim bo’lgan qadamni qo’ygan bo’lamiz.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o’tish kerakki, biz o’z yurtimizni rivojlanishiga xissa qo’shish jarayonida eng muhim bo’lgan insonlar ya’ni o’qituvchi va murabbiylarimizni har tomonlama savodxon bo’lishlari uchun zarur shart sharoitlar yaratib berilishi va mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak. Ayniqsa yosh avlodni tarbiyalash va ularga ta’lim berish jarayonida raqamli texnologiyalar va AI texnologiyalridan maqsadli va unumli foydalanishimiz va shu orqali yuqorida ta’kidlanganidek yosh avlodda AI va raqamli savodxonlikka ham erishgan bo’lamiz. Bu esa o’z navbatida axborot xavfsizligi muammolariga yechim topishda o’rinli ishlardan biri bo’ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasi.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

2. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil 156 3/2020 (№ 00047) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

3. Ng, A. (2017, January 25). Artificial intelligence is the new electricity. Speech presented at Stanford MSx Future Forum in California, Stanford. <https://www.youtube.com/watch?v=21EiKfQYZXc>

4. Xavfsizlik va rivojlanayotgan texnologiyalar markazi. <https://cset.georgetown.edu/publication/ai-education-catalog/>